

AI YORDAMIDA REALIYALARNI ANIQLASH VA TARJIMA QILISH
USULLARI.

Yo'lchiyeva Feruza Ravshan qizi

Parkent Tuman texnikumi o'qituvchisi

Feruzaozodova688@gmail.com

+99893 561 41 94

Otajanova Zuhra Umarjon qizi

Parkent tuman texnikum o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.03.2026

Revised: 31.03.2026

Accepted: 01.04.2026

KALIT SO'ZLAR:

*realiya, sun'iy
intellekt, AI tarjima
vositalari, globallashuv,
tarjima jarayoni.*

Bugungi kunda dunyo adabiyotining ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda, ammo tarjima jarayonida ayrim muammolar hanuz mavjud. Ayniqsa, realiyalarni tarjima qilish jarayoni murakkab hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda sun'iy intellekt realiyalarni aniqlash va ularni tarjima qilishda muhim yordam bermogda. Ushbu maqolada realiyalarni aniqlash va tarjima qilishning asosiy usullari hamda yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Named Entity Recognition (NER) texnologiyasining realiyalarni tarjima qilishdagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

Kirish

Hozirgi davrda sun'iy intellekt ko'plab sohalarda inson faoliyatiga yordam beruvchi muhim vositaga aylandi. Ta'lim va tarjima sohalari ham bundan mustasno emas. Tarjima jarayonida turli onlayn tarjima vositalari matnlarni tez tarjima qilib berishiga qaramay, realiyalarni tarjima qilishda ayrim xatolar uchrab turadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt realiyalarni aniqlash va tarjima qilish jarayonida samarali natijalar berishi mumkin.

Realiya deganda muayyan xalq, mamlakat yoki davrga xos bo‘lgan, boshqa tilda to‘liq muqobili mavjud bo‘lmagan so‘z yoki tushunchalar tushuniladi. Bunday so‘zlar ko‘pincha madaniyat, tarix, urf-odatlar, ijtimoiy hayot va milliy an‘analar bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, mahalla, sumalak, kimono, Halloween kabi so‘zlar realiya hisoblanadi.

Realiya so‘zi lotin tilidagi “realis” — ya‘ni “haqiqiy, mavjud” degan ma‘noni bildiruvchi so‘zdan kelib chiqqan. Keyinchalik bu atama boshqa tillarga ham kirib kelgan. Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat tilni, balki o‘sha til egasi bo‘lgan xalqning madaniyatini ham yaxshi bilishi zarur. Chunki tarjima matni asl ma‘nodan uzoqlashmasligi muhim hisoblanadi.

Tarjima jarayonidagi asosiy muammolardan biri madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar bilan bog‘liq. Agar so‘z yoki ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, u asl ma‘nosini yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Shuning uchun tarjima jarayonida mos tarjima usulini tanlash juda muhim hisoblanadi. Tarjimon ikki madaniyat o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi va matnning ma‘nosini hamda madaniy mazmunini saqlab qolishi kerak.

Realialarni tarjima qilish usullari

Realialarni tarjima qilishda bir nechta usullar mavjud.

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima (transliteratsiya yoki transkripsiya)

Bu usulda realiya boshqa tilga asl shakliga yaqin holda o‘tkaziladi. So‘z shakli deyarli o‘zgarmaydi. Masalan, kimono so‘zi boshqa tillarda ham shu shaklda qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, madrasa so‘zi ham boshqa tillarga ko‘pincha o‘z shaklida o‘tadi.

1. Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов Сов. Энциклопедия, 1969

2 Komissarov V.N. Teoriya perevoda. – Moskva, 2019.

2. Izohli tarjima

Bu usulda realiya saqlanadi, ammo unga qo‘shimcha izoh beriladi. Izoh matn ichida yoki sahifa ostida berilishi mumkin. Masalan, hanami — Yaponiyada bahorda gilos gullarini tomosha qilish an‘anasi.

3. Analogik (o‘xshash) tarjima

Bu usulda tarjimon asl realiyaga funksional jihatdan o‘xshash bo‘lgan so‘zni tanlaydi. Bu to‘liq ekvivalent bo‘lmasligi mumkin, ammo o‘quvchi uchun tushunarli bo‘ladi. Masalan, Thanksgiving — Shukronalik bayrami, ranch — ferma.

Ba‘zi realiyalar boshqa tillarda kengroq yoki torroq ma‘noda ishlatilishi mumkin. Shuning uchun tarjimada har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobil topish oson emas.

Named Entity Recognition (NER) texnologiyasi

Named Entity Recognition (NER) — bu matndagi maxsus nomlarni avtomatik aniqlash texnologiyasi bo‘lib, tabiiy tilni qayta ishlash sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. NER matndagi muhim obyektlarni aniqlab, ularni ma’lum kategoriyalarga ajratadi.

Masalan:

PERSON — shaxs nomlari

LOCATION — joy nomlari

ORGANIZATION — tashkilot nomlari

DATE — sanalar

TIME — vaqt

MONEY — pul birliklari

PRODUCT — mahsulot nomlari

EVENT — voqealar va bayramlar

NER realiyalar bilan ishlashda juda muhim, chunki realiyalar ko‘pincha maxsus nomlar shaklida bo‘ladi. Ushbu texnologiya realiyalarni aniqlab, keyin ularni qaysi tarjima usuli orqali tarjima qilishni aniqlashga yordam beradi.

Masalan, matnda bayram yoki joy nomi aniqlansa, joy nomlari transliteratsiya qilinadi, madaniy hodisalar esa izoh bilan tarjima qilinishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, realiyalar til va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni tarjima qilish oddiy so‘zlarni tarjima qilishdan ancha murakkabdir. Realialarni tarjima qilishda so‘zning ma’nosi va madaniy mazmunini saqlab qolish muhim hisoblanadi. Buning uchun turli tarjima usullaridan foydalanish mumkin: transliteratsiya, izohli tarjima va analogik tarjima. Har bir realiya uchun bir xil usulni qo‘llash to‘g‘ri emas, tarjima usuli vaziyatga qarab tanlanishi kerak. Bu jarayonda tarjimonning bilim va mahorati muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmanova O.S Словарь лингвистических терминов Сов. Энциклопедия, 1969
2. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. – Moskva, 2019.
3. L. Vaysburd Реалия как элемент страноведения. – Риз.Р. 3., - М., 1972
4. Nida E. Language, Culture and Translating. – Amsterdam: John Benjamins, 2009